TOSHKENT VILOYATI ZANGIOTA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 12-iyul 152-10-138-Q/24 Zangiota tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 30-apreldagi 334-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘grisida”gi 162-sonli hamda Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 30-apreldagi 334-10-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi 162-sonli hamda Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 30-apreldagi 334-10-0-Q/24-sonli qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (G‘.Jo‘rayev) davlat ko‘chmas mulk obyektlari hamda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari sotilishidan tushgan tushumlarning qonunchilikka muvofiq tegishli qismini tuman byudjetida qoldirilishini ta‘minlasin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Berdiyev ushbu qaror ijrosi natijalarini har oyda muhokama qilib, amalga oshirilgan chora-tadbirlar ijrosi haqida viloyat hokimligiga axborot kiritib borsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga ma‘sul va shaxsiy javobgar etib tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari G‘.Jo‘rayev belgilansin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Berdiyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **E.E.RUSTAMOV**